



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№17 (803), 2025-yil 15-sentabr

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ Islohotlar - amalda!

ENG MUHIM QADAMLAR ILMDAN BOSHLANADI

O'zbekiston boy foydali qazilmalar makoni. Bunday ne'mat dunyoning ko'pgina davlatlarida yo'q. Bu – ayni haqiqat. Ushbu imkoniyatlar - yurtimiz kon-metallurgiya sanoatini yanada rivojlantirishga zamin yaratmoqda. Zero, bunday bebaho boyliklar Vatanimiz iqtisodiy qudratini yanada oshirishda muhim strategik ahamiyatga ega.

Bu borada qabul qilinayotgan dasturlar yurt taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Buni ta'riflashga bugun so'z o'rij. Bu - kombinat hayotida ham o'z aksini topayotir. Ushbu islohotlar zahirida korxonani zamonaviy kompaniyaga aylantirish, ishlab chiqarish sur'atini oshirishdek maqsadlar mujassam.

Bugun kombinat raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lidani bormoqda. Bunda, jamoaning birdamligi, boy tajribasi va ulkan sahlohiyati namoyon. Ular yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar yaratmoqda. Ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tadbiiq etmoqda va shu boisdan yutuqlarga erishmoqda. Buning ortidan Navoiy kon-metallurgiya kombinati zamonaviy korxonaga aylandi. Bu jarayonda malakali mutaxassislar, muhandis-texnologlar, energetiklar, konchi va metallurglar, barcha faol. Yaratuvchanlik shijoati ularga bir zum ham tinchlik bermaydi. Kecha-yu kunduz izlanish, itilishda. Bu kabi sa'y-harakatlar bilan gigant korxona dunyoga tanilib, yetakchilar safidan joy olib, barqaror va ulkan o'sish nuqtasida davom etmoqda...

DUNYONI OLIMNING ILMI ASRAYDI!

Taraqqiyotning asosiy tamal toshi, har qanday davlatning qudrati, millatni buyuk qiladigan katta kuch bu – ilm-fan! Bugungi globalashuv, kuchli raqobat kechayotgan murakkab davrda yaratuvchanlik, izlanishlar, innovatsiya yutuqlari yagona yechim ekaniga guvohmiz. Bejjizga: olamni olimning ilmi asraydi, deyishmagan. Bu – hozirgi axborot asrida yangi bosqichga chiqib, hayotning o'zi raqobat maydoniga aylandi.

Yangi gidrometallurgiya zavodlari, konlar va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarini ishga tushirish, yangi ish o'rinlari tashkil etish hisobiga kombinat faoliyat ko'lami yildan-yilga kengayib bormoqda. Bu uzluksiz jarayon ilm-fan va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan boxabar

■ Mustaqillik shukuhi

MARJONBULOQ VA MARJONBULOQLIKLAR

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida har bir bo'linma paydo bo'lishining o'z tarixi, ta'rifi bor. Marjonbuloqdagi bo'linmalar ham mana shunday tarixiy yo'lga ega. Aytishlaricha, bundan yarim asr burun bu erlar o'zdiy qishloq, dashtu dalalardan iborat bo'lgan ekan. Bu zamin bag'ridan qimmatbaho metallar zaxirasining topilishi bilan hududga sanoat kirib keldi. "Marjonbuloq" koni, "Marjonbuloq" oltin ajratib olish sexi va Marjonbuloq shaharchasi qad rostladi.

Hozirgi kunda mazkur kon va sex Janubiy kon boshqarmasining tarkibiy bo'linmasi bo'lib, bu yerda ming nafardan ortiq konchi-metallurg, muhandis-texnolog, ishchi-xodim mehnat qilmoqda.

- O'tgan davr biz uchun juda katta sinov bo'ldi. Fidokorona mehnat ortidan rejalar ortig'i bilan bajarilib, bosqichma-bosqich o'sish sur'atlari oshirib borildi. Samaradorlikni tahlil va taqqos etadigan bo'lsak, hozirgi paytda kundan har sutkada 2,6 ming tonna, bir yilda 5,3 million kubometr oksidli va sulfidli tog' jinslari qazib olinmoqda. Oltin ajratish sexida uning 837 ming tonnasi qayta ishlanmoqda, - deydi sex boshlig'i Elyor Rustamov.

Biz borgan pallada ham ish ko'lami, ishlab chiqarish jarayonlari qizg'in davom etardi. Bu natijalar o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Bunda, mehnatda toblangan jamoa jasorati va mashhaqqatli mehnati mujassam. Darvoqe, bu yil "Marjonbuloq" koni tashkil topganiga 45 yil to'ldi.

ZAMIN ZARNI, ZAMON ZARGARNI YARATADI

"Marjonbuloq" koni - 1980-yilda tashkil topgan. Shonli va sharaffi, zalvorli va zafarli yo'lga ega kon! Korxona shundan boshlab, ya'ni, qirg' besh yildan buyon bir on ham to'xtagan yo'q. Ishlab chiqarish bir maromda davom etmoqda. Bugunga kelib konning uzunligi 2 ming metr, eni 900 metr va chuqurligi 215 metrga yetdi.

Keling tarixga qaytamiz! O'tgan asr o'talarda G'allaorol hududida ulkan ma'dan zaxirasi aniqlandi. Bu, O'zbekiston uchun - tarixiy yangilik, geologiya-qidiruv ishlarining – ulkan natijasi edi. Ushbu kashfiyot bepoyon dasht bag'rida kon va fabrika, shuningdek, ishchilar shaharchasi, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurish davrini boshlab berdi.

Sanoat industriyasi va shaharcha barpo etilishida taniqli davlat arbobi, ulug' adib Sharof Rashidovning xizmatlari beqiyos bo'lgan ekan. Mahalliy xalq buni faxr bilan ko'p eslaydi. Shu davrda

bo'lish, zamonaviy muhandislik texnologiyalariga doir bilimlarni egallashni talab etadi. Har bir sohada izlanish va tajribalar ulkan yutuqlarga yetaklaydi. Bugungi kunda korxonada faoliyat yuritayotgan 10 nafar fan doktori, 23 nafar fan nomzodlari ham bu jihatlarga alohida e'tibor qaratib, doimiy izlanishda.

Izlagan, intilgan imkon topar! Shu maqsadda, kombinat jamoasi, olim va mutaxassislari allaqachon izlanishga kirishgan. Sohaga ilmiy yangiliklar olib kirish yo'lida tinimsiz izlanishda. Doimiy izlanishlar esa o'z natijasini ko'rsatmoqda. Konchilar va metallurglarning olamshumul ixtirolari, kashfiyotlari ishlab chiqarishga tatbiq etilib, xalqaro e'tiroflar, davlat mukofotlariga sazovor bo'layotgani buning isboti. Tinimsiz yaratuvchanlik, shu bilan birga, ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalash, innovatsion yechimlar orqali ijobiy natijalar qo'lga kiritilmoqda. Qimmatbaho metallni qayta ishlash bo'yicha olim va mutaxassislarimiz yaratayotgan ilmiy ishlanmalar katta muvaffaqiyat keltirmoqda. Buning evaziga kombinat dunyo reytingida oltin ishlab chiqarish bo'yicha yuqori marallarni zabt etmoqda".

Zamon shiddat bilan ilgariib, har bir sohada raqobat kuchayib, texnologiyalar tobora takomillashib boryapti. Davr ma'danni qayta ishlashning zamonaviy, samaradorligi yuqori bo'lgan usullarini izlab topish, yangi texnologiyalar yaratish va ishlab chiqarishga joriy etishni taqozo etyapti.

Bugun nodir va qimmatbaho metallarga talab oshib borayotgan bir paytda, oson ajratib olinadigan oltin tarkibli ma'danlar zaxirasi yildan-yilga kamaymoqda. Natijada dunyo miqyosida bu masalaga ilmiy yondashib, qayta ishlanishi qiyin bo'lgan ma'danlardan oltin ajratib olish texnologiyalarini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Chunki, kon-metallurgiya sohasi doimiy harakatda bo'lishni talab etadi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham bu hayotiy zaruratga aylanyapti. Ilmiy izlanishlar, fan va texnika yutuqlari, yangiliklar yaratish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish borasida ulkan jamoa katta yutuqlarga erishayapti.

Mutaxassislarimiz ishlab chiqarishdagi ilmiy yangilik korxonaga kattagina foyda keltirishini o'n yillik izlanishlari natijasida isbotlaganlar. Shu o'rinda Imom Buxoriyning "Al Jome' as-Saxix" asaridagi quyidagi jumlarlar yodimizga keladi: "Barcha ezgu amallar niyatga bog'liq, har bir kishiga faqat niyat qilgan narsasi beriladi.

Birgina misol tariqasida aytadigan bo'lsak, ularning 3-gidrometallurgiya zavodi faoliyatiga tadbiiq etilgan olamshumul ixtirosi dunyo kon-metallurgiya sanoatida katta yutuq bo'ldi. Ilmiy yondashuvlarga asoslangan ishlanma jahonda muhim

yangilik sifatida tan olindi va xalqaro miqyosda e'tiroflarga sazovor bo'ldi. Kombinats mutaxassislari tomonidan yaratilgan "Oltin-mishyakli, ishlanishi qiyin bo'lgan sulfidli rudalardan oltin ajratish usuli" mavzusidagi ilmiy ishlanma Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Butunjahon intellektual mulk tashkilotining oltin medaliga sazovor bo'ldi. 2022-yilda uning mualliflari Prezidentimiz Farmoni bilan birinchi darajali Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Aslida bularning zahirida qanchalik mashaqqat, izlanishlar, tinimsiz harakatlar mujassamligini tasavvur etish ancha mushkul. Kombinats olim va mutaxassislari bu kashfiyotni yaratish uchun uch mingdan ortiq muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz tajriba-sinov ishlari olib borilganligini aytadigan bo'lsak, ilm aslida igna bilan quduq qazishdek mashaqqat ekanligiga yanada amin bo'lamiz. Mazkur ixtiro tufayli bugun texnologik ko'rsatkichlar, ya'ni, zavodda ma'dandan oltin ajratib olish darajasi 12,4 foizga, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 15 foizga oshmoqda. Bu juda katta natija hisoblanadi. Hamkasblarimiz bu bilan to'xtab qolgani yo'q. Ana shunday yangilanishlar, tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar olimlarimizning ilmiy faoliyatlarini yanada samarador bo'lishiga erishishni ta'minlaydi.

Davomi 3-betda ➡

■ Xushxabar

Mustaqillik bayrami shukuhi kezib yurgan kunlarda Qo'shrabotning Zarkent qo'rg'onida quvonchli voqea – Janubiy kon boshqarmasi ishchi-xodimlari uchun namunaviy loyiha bo'yicha qurilgan 4 qavatli, 32 xonadondan iborat xizmat uyi foydalanishga topshirildi.

XIZMAT UYI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Mamlakatimizda xalq farovonligi, yurt ravnaqi yo'lida mas'uliyatli vazifalarini uddalab kelayotgan konchi va metallurglar hamda ularning oila a'zolari ni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga doimiy e'tibor qaratilmoqda. Kombinats xodimlarining samarali mehnat qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

– Uy-joyli kishining har bir kuni unumli kechadi. Chunki uning oilasi, bola-chaqasidan ko'ngli to'q bo'ladi. Binobarin, butun o'y-fikri, kuch-g'ayratini turarjoy tashvishiga emas, ishga sarflaydi. Shu nuqtai-nazardan Istiqlol bayrami nishonlangan kunlarda kon boshqarmamizning 32 nafar ishchi-xodimiga zamonaviy uy-joy kaliti topshirilgan ular uchun qo'shaloq bayramga aylandi, – dedi 2-sonli Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Muhabbat Gaffarova,

– Yigirma besh yildan buyon Janubiy kon boshqarmasida ishlayman. Kasbim, ishim o'zinga yoqadi. Inson mehnat qilsa, albatta, rohatini ko'rarkan, – dedi Janubiy kon boshqarmasi texnik nazorat guruhi rahbari Ramazon Boltayev. – Mustaqillikning 34 yilligi arafasida yangi xonadonli bo'ldim. Albatta, bu e'tibor hamkasblarimga o'mak bo'lib ishlashga, yurtga sidiqdildan xizmat qilishga chorlaydi.

Aytish kerakki, ushbu xonadonlarda yashovchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Mazkur xizmat uyini qurishda xonadon egalari ehtiyojlari-dan kelib chiqib, kelajakda bolalar maydonchalari, dam olish uchun ayvonlar barpo etish ham nazarda tutilgan.

– O'g'lim Asqarxon Navoiy kon-metallurgiya kombinati tizimida mehnat qilayotganidan faxrlanam. Bugun bir guruh hamkasblari qatori unga yangi xizmat uyi kaliti topshirildi. Juda xursand bo'ldik. Ilohim, mustaqilligimiz boqiy bo'lsin, xalqimizning boshi to'ydan chiqmasin, tinchligimizga ko'z tegmasin!, – dedi Asrorxon To'rayev.

Foydalanishga topshirilgan mazkur turarjoy binosi Zarafshon qurilish boshqarmasi jamoasi tomonidan bunyod etildi.

M.HUSANOV.

■ Xabar

2-gidrometallurgiya zavodida qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmini oshirishga yo'naltirilgan strategik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilaypti.

ZAVOD QUVVATI OSHADI

Zavod bosh muhandisi Matkarim Aliqulovning ta'kidlashicha, zamonaviy asbob-uskunalar joriy etish hisobidan tayyor mahsulot hajmini oshirishga erishilmoqda. Ayni vaqtda sorbsiya bo'limida qo'shimcha 30 ta sorbsion uskunalarini qurish, quyultirish bo'linmasida qo'shimcha 2 ta quyultirgichni qurish, 16-sonli nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish, Maydalash sexining ikkinchi binosini kengaytirish va sexning ikkinchi navbati loyihasi asosida 33-tegirmon blokini montaj qilish ishlari olib borilmoqda. Ushbu loyihalar to'liq quvvatda foydalanishga topshirilgach, zavod bufer omborining maydoni kengayadi, natijada 32 va 12 tonnali ko'priklarni qurish imkonini yaratiladi.

Ta'kidlash joizki, texnologiy ehtiyoq qismlar va yangi tegirmonlar uchun zarur asbob-uskunalar mahalliy lashtirilib, Navoiy mashinasozlik hamda Zarafshon ta'mirlash-mexanika zavodlarida tayyorlanaypti.

N.KENJAYEVA

Davomi 3-betda ➡



amalga oshirilgan barcha olamshumul ishlar atqoli o'zbek farzandining qo'llab-quvvatlashi bilan bog'liq. O'zbekiston birinchi rahbari hududga tashrifi buyurib, mahalliy aholi bilan uchrashadi. Ularning muammolarini tinglaydi va hal etishga bosh-qosh bo'ladi. Bu tarixiy kunlar Marjonbuloq tarixiga zarhar harflar bilan bitilgan.

Ilk yillarda ushbu koning boshqaruv idorasi ma'lum muddat Qo'yotash posyolkasida faoliyat olib borgan. Konda ilk qazish ishlari boshlanib, tog' jinslari "Lalmikor" temir yo'l stansiyasi yaqinida ochilgan ma'dan saqlash omboriga tashilgan va u yerdan Uralning Revda shahridagi mis eritish zavodiga jo'natilgan.

Ilk yillarda aniqlangan qimmatbaho metallar zaxirasi uzoq muddat ishlash

uchun yetarli emasdi. Bu, shak-shubhasiz, geologiya-qidiruv ishlarini yanada kuchaytirish, xomashyo zaxirasini kengaytirishni talab etardi. Ushbu ehtiyojdani kelib chiqib, "Marjonbuloq" geologiya-qidiruv partiyasi tashkil etildi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan geolog Pirmuhammad Toshqulov rahbarlik qilgan davrda e'tirofga molik ishlar olib borildi. Ya'ni, oltin-toparlarning tinimsiz izlanishi, geologiya-qidiruv ishlari natijasida yangi zaxiralar aniqlandi.

Kon ilk tashkil topgan yillarda kadrlar masalasi muammo edi. Shu bois, mutaxassis-kadrlar chetdan jalb etilgan. Ular kon hududida qurilgan barak uylarda yashagan. Keyinchalik O'zbekistonning o'zida kadrlar tayyorlangani evaziga asta-sekin ishlar izga tushib ketdi. Yaqin

yillardan boshlab mahalliy kadrlarga bo'lgan e'tibor tufayli korxonaga zamonaviy fikrlaydigan mutaxassislar, sohaning yangi vakillari kirib keldi.

O'tgan yillar davomida "Marjonbuloq" konidan ko'plab konchilar, metallurglar, shaxtyorlar, geologu marksheyderlar, el-yurt koriga yaranagan va yarayotgan qanchadan-qancha ulug' insonlar, soha darg'alari yetishib chiqdi. Va yana soha rivojiga munosib hissa qo'shishga qodir sanoat xodimlarining yangi avlodi shakllandi. Ular bugun o'zlariga bildirilgan ishonchni to'liq oqlab, zamonaviy texnika va texnologiyalarni boshqarmoqda. Bu, shak-shubhasiz, mazkur konning buguni va kelajagi ishonchli qo'llarda ekanidan dalolat beradi.

■ Davlat mukofoti sovrindorlari

YUKSAK MUKOFOT VA ISHONCH KATTA SHARAFDIR!

Oilamiz konchilar sulolasi hisoblanadi. Rahmatli otam “Ingichka” shaxta qurilish boshqarmasida uzoq yillar haydovchi bo’lib ishlagan. Bu kasbga qiziqish hammamizga otamizdan o’tgan, taqdirimiz shu yo’ldan ketgan bo’lsa, ne ajab! Akalarim Mahmud, Alisherlar ham shaxta-qurilish sohasida ishlab, pensiyaga chiqqan. Ayni paytda akam Hukum, opa-singillarim Mahfuza va Gulshodlar ham shu sohada faoliyat olib bormoqda. Kattaqo’rg’on tumanida bizni konchilar avlodi, deb atashadi. Bu – barchamizga hamisha g’urur va surur bag’ishlaydi.



Bundan roppa-rosa o’ttiz yil avval ilk mehnat faoliyatimni Navoiy kon-metallurgiya kombina-tida “Qoqpatas” konida oddiy kon ishchiligidan boshlaganman. Bu - men uchun qat’iy qaror edi. Rizq-nasibam shu yerga, shu sohaga sochil-gan ekan. Yigirma uch yil uchquduqliklar bilan bir el bo’lib yashadim. Shahar ahli baynalminal bo’lsada, tez orada ular bilan oilaviy do’stlashib, qo’ni-qo’shni, do’st-birodar bo’lib ketdim. Yillar davomida mehnatim ortidan ko’pming kishilik jamoada o’z o’rnimni topdim.

Farzandlarim Abbos, Akmal va Charoslar Uchquduqda tug’ilib, voyaga yetdi. Turmush o’r-tog’im Gulnoz bilan ularning o’qishi, ta’lim-tarbi-yasi, til bilishiga katta e’tibor qaratganimiz ular uchun yorqin kelajak yo’lini yaratdi. O’g’illarim-niing biri bugun Moskva aviatsiya institutida, biri AQSh universitetida, qizim iqtidorilar maktabi-da tahsil olmoqda. Ota-onam uchun bundan ortiq baxt-saodat bo’lmasa kerak.

Ochig’i, hayotimda bunday ijobiy o’zgarishlar bo’ladi, deb sira o’ylamaganman. Hammasiga mehnat, sabr-qanot, intilish sabab bo’lsa kerak. Faoliyatimni oddiy ustalikdan boshlab, “Sharqiy” koni bosh muhandisi, kon boshlig’i, Shimoliy kon boshqarmasi bosh muhandisining kon ishlari bo’yicha o’rinbosari lavozimlarida ishlash nasib etdi. 2021-2023-yillarda “Auminzo-Amantoy” koni ishlab-chiqarish texnik bo’limi boshlig’i va-zifasida ishladim. Ayni paytda “Pistali” koni bosh muhandisi o’rinbosari lavozimida ishlab kelayap-man.

Ayniqsa, 2012-yil men uchun quvonchli, umr daftarimga zarhal harflar bilan yozilgan sana hisoblanadi. Shu yili kamtarona mehnatim yuk-sak qadrlanib, “Shuhrat” medali bilan taqdirlan-ganman. U paytda hayot bo’lgan Orol otam bu xursandchilikni sevinch ko’z yoshlari bilan qar-shilagani, Quدراتовlar oilasi bola-chaqasi bilan tabriklash uchun kelib, katta uyga sig’magani ha-li-hanuz yodimdadir. Afsuski, yutuqlarimni bundan o’ttiz ikki yil muqaddam vafot etgan Farida onam ko’rmay ketdi.

Men shuni anglab yetdimki, har qanday inson-niing hayotida kim, qanday bo’lishi o’ziga, intilishi-ga bog’liq ekan. Bunga faoliyatim misol. O’zingiz o’ylang, oddiy haydovchining o’g’li tug’ilib o’sgan maskanidan olisda ishlab jamiyatda o’z o’rni-ni topadi. Davlat mukofotlariga sazovor bo’ladi deb kim o’ylabdi, deysiz! Bu ham, albatta, dav-latimizning, kombinat rahbariyatning sohamizga,

bu kasbda mehnat qilayotgan ishchi-xodimlarga bo’lgan e’tiboridan dalolatdir.

Joriy yil men uchun yanada quvonchli keldi. Mustaqilligimizning o’ttiz to’rt yillik shukuhi keza-yotgan kunlarda muhtaram Prezidentimiz Far-moni bilan “O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan sanoat xodimi” faxriy unvoni bilan mukofotlandim. Ochig’i, bunday rag’batni, dav-latimizning yuksak mukofoti bilan taqdirlanishni hech kutmagandim. Elik uch yoshimda shunday e’tirofga sazovor bo’ldim. Mazkur Farmon chiq-qan kunni mehnat ta’lilida bo’lib, “Chinobod” sa-natoriysida dam olayotgan edim.

Kechki payt xonamga uchquduqlik Normu-hammad aka xursand holda kirib keldi. Meni bag’riga bosib, tabriklay ketdi. Avvaliga nima gapligini bilmay hayron bo’ldim. Hamkasbim: “Aka, Davlat mukofoti muborak! Mana ijtimoiy tarmoqda chiqibdi”, degandan so’nggina bu xur-sandchilik va tabrik mohiyatini anglab yetdim. Haqiqatda, e’lon qilingan ro’yxatda ismi-sharifim birinchilar qatorida turardi. Bu xushxabardan be-ixtiyor to’lqinlanib ketdim. Yaxshi xabar tez tar-qaldi. Tabriklar qurshovida qoldim. Hozirgacha qo’ng’iroqlar tinmaydi. Farzandlarim, kombinat rahbariyati, tanish-bilishlar, hamkasblar, ham-qishloqlar, do’stlar, yaqinlar biri qo’yib, biri tele-fon qiladi, tabriklaydi.

Baxt kelsa, qo’sha-qo’sha kelaverarkan. Un-vonni olish uchun poytaxtga taklif etildim. Muko-fotni davlatimiz rahbaridan qabul qilib olish baxti nasib etdi. Bilasizmi, ushbu tarixiy va nufuzli tad-birda muhtaram Yurtboshimizning: “Yosh ekan-san. Hali kelajak oldinda. O’z ustingda yanada qattiq ishla, mehnat qil, boshqalarga o’rnak bo’l! Yangi O’zbekiston taraqqiyotiga xizmat qilish barchamiz uchun yuksak sharaftir”, degan so’z-lari meni benihoya hayajonlantirdi. Bu, albatta, menga bildirilgan yuksak ishonch, mas’uliyat ekanini chuqur his etdim.

Bugun shunday jannatmakon yurtida yasha-yotganim, konchilik va metallurgiya sohasida ishlayotganim, kombinat rivojiga o’z hissamini qo’shayotganimdan hamisha faxrlanaman. In-son qadri ulug’langan zaminda yurt taraqqiyotiga xizmat qilish, ishonchni oqlash hamisha birinchi darajali vazifam bo’lib qoladi.

O’ktam QUDRATOV,
“O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan sanoat xodimi” faxriy unvoni sohibi.

Yurtimizda mehnatsevar, halol va fidoyi insonlar qadrlanadi. Ular o’zlarining kundalik faoliyati, mas’uliyatli xizmati bilan mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo’shib kelishmoqda. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida konchi va metallurglarning samarali mehnati doimo munosib e’tirof etilib kelinadi. Joriy yilda “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” shiori ostida nishonlangan eng ulug’, eng aziz bayramimiz – mustaqilligimizning 34 yillik ayyomi arafasida ko’plab yurtdoshlarimiz qatorida kombinat ishchi-mutaxassislari ham Prezidentimiz tomonidan Davlat mukofotlari bilan taqdirlanishdi.

MEHNATGA MUNOSIB RAG’BAT



dim va shu sohada ishlab kelyapman. Ishimiz juda nozik, bu yerda o’ta e’tiborlilik talab etila-di, – deydi tajribali mutaxassis Sh.Yodgorov. – Uchastkamizda faoliyat olib boradigan har bir xodim normativ-texnik hujjatlar talablariga mu-vofiq maqsadli o’qitilgan va amaliyotni o’tagan. Men bu yerda ish boshlagan yillarda burg’i qu-duqlarini zaryadlash, kimyoviy moddalarni yuk-lash, tashish qo’l mehnatini talab qilar edi. Bu-gungi kunga kelib maxsus “SCANIA” rusumidagi zamonaviy aralashtirib zaryadlash mashinalari yordamida burg’i quduqlarini zaryadlash ishlari oson va tez bajarilmoqda. Bu kabi mashinalar nafaqat og’irni yengil qilish, balki xodimlar xavf-sizligini ta’minlash va ish unumdorligini oshirish imkonini ham bermoqda. Obyektlarda portlatish ishlari qat’iy talab va tartib asosida olib boriladi.

Portlatish uchastkasi jamoasi bir kunda o’rta-cha 100-250 tonna turli xil portlatuvchi modda-larni burg’i quduqlariga joylashtirib, tog’ jinslarini portlatish orqali yumshatib, ekskavatorlarning tog’ jinslarini yuklashlari uchun tayyor holda maydalab bermoqda. Shuxrat Yodgorov kabi portlatuvchilar saratonning jazirama kunlarida ham, qishning qahraton sovg’ida ham o’z ish-larini mas’uliyat bilan bajarishga o’rganib qolish-gan. Oilasining rizqini shu uchastkadan topayot-gan har bir ishchi-xodim kasbiga sadoqat bilan

ish faoliyatini davom ettirmoqda. Portlatish ishla-rining mukammal va xavfsiz bajarilishida kon us-talarining bilimi, talabchanligi muhim ahamiyatga ega. Sohaning qahramonimiz singari malakali fi-doyilari o’z xizmat vazifalarini to’laqonli va sifatli amalga oshirayotganligi bois belgilangan rejarlar o’z vaqtda bajarilmoqda.

Shuxrat Yodgorov mehnat faoliyati davomida 20 dan ortiq yosh ishchilarga o’zining boy tajri-basini o’rgatgan murabbiydir. Shuxrat O’razba-yevich ko’p yillik fidokorona mehnatlari uchun korxona rahbariyati tomonidan bir necha maro-taba Faxriy yorliq va qimmatbaho sovg’alar bilan taqdirlanib kelmoqda.

Sh.Yodgorov barcha yutuqlariga o’zining ta-shabbuskorligi va fidoyiligi tufayli erishmoqda. U turmush o’rtog’i Zulxumor opa bilan uch nafar farzandi va ikki nafar nabiralari qurshovida ibratli umrguzaronlik qilib kelmoqda.

Zero, inson uchun hayotda o’z e’tiqodiga so-diq bo’lib qolishdan ulug’roq baxt, tanlagan kas-bining ustasi sifatida elu yurt xizmatida bo’lmoq-dan to’kisroq saodat, halol-pokiza umrguzaronlik qilib yashashdan a’loroq ne’mat yo’q.

Istiqlol bayrami MKB Tarmoqlar va podstan-siyalar sexi 7-Gidrometallurgiya zavodi yuqori kuchlanishli uchastkasi ustasi Lochin Xidirov uchun ham qo’shaloq bayram bo’di.

– Rahbariyat tomonidan ish faoliyatim alohi-da ta’kidlanganda kasbimdan faxrlanib ketaman. Shunday kezlarda umr bo’yi halol mehnat orqa-sidan kun kechirgan otamning pand-nasihatlari yodimga tushaveradi. Hayotda bizga to’g’ri yo’lni ko’rsatganliklari bois jamiyatda o’z o’rnimni top-dim. Samarali mehnatim, kombinatimiz rivojiga qo’shgan hissam uchun 2008 yilda “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan bo’lsam, mustaqilli-gimizning 34 yilligi arafasida kamtarona mehnatim yana bir bor davlatimiz rahbariyati tomonidan munosib baholanib, “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlandim. Bu, birgina mening emas, balki butun jamoamiz mehnatining samarasidir. Har bir ishga vijdonan yondashish, halollik va mas’uliyatlilik yaxshi natijalar olib keladi, – deydi Lochin Shopo’latovich.

Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida tug’il-gan Lochin Xidirov hayotini mehnat bilan beza-gan insonlardan. Yoshligidan texnika va amaliy bilimlarga qiziqishi tufayli 1991-1993-yillarda Qiziltepa tumanidagi 37-qishloq xo’jalik kasb-xu-nar texnika bilim yurtida tahsil olgan. Ilk mehnat faoliyatini “Agropromstroyremont” korxonasi-da avtomobillarni ta’mirlovchi chilangar sifati-da boshlagan, oradan bir yil o’tgach, faoliyatini Zarafshon qurilish boshqarmasi Mexanizatsi-yalashgan ishlar uchastkasida davom ettirdi. 30 yildan ortiq vaqt mobaynida Lochin Xidirov Markaziy kon boshqarmasining Tarmoqlar va podstansiyalar sexida ishlab kelmoqda. Mazkur korxona Zarafshon shahri hamda kon boshqar-masi sanoat maydonlarini ishonchli elektr ener-

giyasi bilan ta’minlaydi. Korxona jamoasi bir ne-cha ming kilometr kabel va havo liniyalari, o’nlab transformator podstansiyalariga xizmat ko’rsa-tadi. Bu esa ishchi-xodimlardan yuksak malaka talab etadi. Qahramonimiz faoliyat yuritayotgan uchastka 7-gidrometallurgiya zavodida joylash-gan. Uning asosiy vazifasi yuqori kuchlanishdagi simlarni kaysharlash va izolatsiyalash, birkitirish va ajratish, elektrmagnitli va elektrdinamik tizim-lar, elektr asboblari xizmat ko’rsatish, sozlash, yig’ish bo’yicha ishlarning xato va kamchiliklar-siz hamda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya



qilgan holda bajarilishini nazorat qilishdan iborat.

– Ishda xato va kamchiliklarga yo’l qo’ymaslik, favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoida-lariga qat’iy rioya qilish zarur, – deya ta’kidlaydi L.Xidirov. U dinamometr, avtoskaner va boshga diagnostik asbob-uskunalar yordamida buning chora-tadbirlarini ko’radi va shogirdlaridan ham shuni talab etadi. Inson nafaqat qo’l ostidagilar-ga, balki o’ziga nisbatan ham talabchan bo’lmo-g’i lozim, deb hisoblaydi.

L.Xidirov ish faoliyati davomida o’zini mala-kali mutaxassis, mas’uliyatli hamda talabchan mutaxassis sifatida ko’rsatmoqda. Lochin aka “Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo’lar chi-roylilik” degan naqlga amal qilgan holda turmush o’rtog’i Nilufar opa bilan 4 nafar farzandni tarbi-yalab voyaga yetkazishdi. Farzandlarining ta’-lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratdi. To’ng’ich farzandi Sabina onasi kabi o’qituvchilik kasbini tanlab, shu sohada faoliyat olib bermoqda. O’g’li Elchin Italiya davlatida “Huquq va davlat bosh-qaruv” yo’nalishi bo’yicha tahsil olmoqda. Kichik farzandlari Sabrina Navoiy shahridagi 6-sonli, kenjatoyi Elshod Navoiy shahridagi 1-ixtisos-lashtirilgan maktab-internati o’quvchilari.

Lochin Xidirovning hayoti va faoliyati kon boshqarmasidagi har bir yosh mutaxassis kadr-lar uchun ibratdir. U butun jamoada obro’-e’tibor qozongan.

Kombinatimiz taraqqiyotida mehnatkash in-sonlarning o’rni beqiyos. Bu jihatdan Shuxrat Yodgorov va Lochin Xidirov kabi insonlarning faoliyati yorqin misol bo’la oladi.

Nafosat ZIYOYEVA,
Aziza IRISOVA.

■ Люди нашего комбината

ДЕЛО НАСТОЯЩИХ МУЖЧИН

«Восточный» – один из крупнейших золотодобывающих рудников, который входит в состав Северного рудоуправления Навоийского горно-металлургического комбината. В настоящее время горные работы ведутся на 14 карьерах сульфидной руды, а в феврале текущего года карьер «Турбай» переведён в состав рудника «Восточный». Этот шаг поспособствовал увеличению объёма добычи золотосодержащей руды и темпов производства на руднике.

В связи с расширением почти на 50 процентов увеличилось количество современной тяжёлой горнодобывающей техники, такой как буровые установки, экскаваторы, автосамосвалы. И, соответственно, прибавилось работы на участке ремонта и монтажа буровых установок (СБШ-250). Но специалисты участка – знатоки своего дела, а руководит ими опытный, с 30-летним производственным стажем специалист - Уктам Туракулович Умаров.

Родом из Иштыханского района Самаркандской области, он после армии в 1991 году поступил в Ташкентский государственный технический университет на факультет «Горная механика». После окончания в 1996 году по направлению приехал в город Учкудук.

– Тогда я вообще не имел представле-ния о том, что такое город Учкудук, а

когда увидел – мне здесь понравилось, – вспоминает Уктам Туракулович. – Нас, молодых специалистов, встретили ра-душно – в тот же день обеспечили жи-лём в общежитии, рабочим местом. Я начал работать слесарем на геотехноло-гическом руднике. Вскоре приехала жена с сыном, через некоторое время нам дали квартиру. И началась наша жизнь в Кызылкумах...

В 1998 году Уктам Туракулович пере-вёлся на рудник «Восточный» на участок ремонта и монтажа СБШ-250, да так и трудится здесь почти 30 лет. Работать на-чинал также слесарем, а с 2004 года – уже 21 год - является начальником участка.

Под его руководством трудятся 42 че-ловека, почти половину составляют мо-лодые специалисты - выпускники коллед-жей и вузов. Костяк состоит из опытных, имеющих многолетний стаж работы в

условиях карьера работников. Среди них Абдурахмонов Расулжон, Норбоев Улуг-бек, Мухаммадиев Исомиддин, Барнаев Аслиддин, Очилов Жобир, Эшназаров Гуломжон, Бахтибаев Абдукул, Шомуро-дов Истамжон и другие. Все они когда-то были наставниками Уктам Туракулови-ча, а сегодня обучают молодёжь.

- Работу с новичками мы начинаем с рассказа о Кызылкумах, городе Учкудук и его истории, рассказываем, где и ка-кой магазин и организация находятся, советуем как устроить быт, - рассказал Уктам Туракулович. - Затем, естественно, знакомим с историей НГМК, Северного рудоуправления, особенностями про-изводства, профессии, рассказываем о руднике и карьерной технике. Словом, объясняем буквально всё, отвечаем на вопросы, советуем...

Специалисты участка по заявкам с ка-рьерра ремонтируют буровые установки, занимаются подготовкой резерва запча-сней, их восстановлением. На участке для этого есть всё необходимое оборудо-вание – токарные станки, сварочный пост и другое. Строго соблюдают правила ТБ, периодически работники проходят обучение в учебно-курсовом комбинате рудоуправления, там же сдают экзамены на повышение разряда.

Коллектив участка, да и всего рудни-ка дружный и сплочённый общей целью



– стабильно обеспечивать комбинат зо-лотосодержащей рудой. Несмотря на то, что рудник «Восточный» находится за несколько километров от города, рас-стояние стало для них привычным. Тем более, что, по словам Уктам Туракуло-вича, условия труда стали намного луч-ше, чем 15-20 лет назад, горная техника и оборудование современные, и с ними интересно работать. Комфортабельным стал и транспорт для доставки людей на

рудник – если раньше ездили на ЛАЗах, то сейчас служебные автобусы с отопле-нием зимой и охлаждением летом. Также построили для рабочих новую - простору-ню и светлую - столовую, благоустроили территорию. В общем, с каждым годом наблюдаются позитивные изменения.

– Я рад, что судьба связала меня с Уч-кудуком, с рудником, - говорит Уктам Ту-ракулович. – Здесь я обрёл много насто-ящих друзей, с супругой воспитали четве-

рых сыновей. И, что немаловажно, здесь у меня любимая работа. Я считаю, что наше производство, суровые условия пу-стыни воспитывают настоящих мужчин, с закалённым в трудностях характером, стойкими к любым условиям. Поэтому со-ветую молодым ребятам – приезжайте к нам, всему научим, примем в свою тру-довую семью.

Насиба ШАМУРАТОВА.

■ Mustaqillik shukuhi

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

E'TIBOR BOR JOYDA,
RIVOJLANISH BO'LADI

Hukumat qarori bilan 2002-yilda "Marjonbuloq" koni Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarkibiga o'tkazildi. Bu paytda jihozlar texnik jihatdan ancha eskirgan, binolar ta'mirlalab, isitish tizimlari ishdan chiqqan, suv muammosi, maxsus ishchi kiyimlari ta'minoti va boshqa muammolar to'planib qolgan edi. Hattoki, kerakli oddiy ehtiyoj qismlar va jihozlar ham chetdan keltirilgani ishlab chiqarishda to'xtalishlar, uzilishlarga sabab bo'lardi. Eng achinarlisi, maoshlar kamligi, o'z vaqtida berilmasligi oqibatida jamoada norozilik kayfiyati, kadrlar qo'nimizligi yuzaga kelgandi.

Nihoyat Marjonbuloqda uzoq kutilgan o'zgarishlar boshlandi. Kombinat rahbariyati ishchilar bilan uchrashib, odamlar ichiga kirdi, ularning dardlarini tingladi. To'planib qolgan muammolarni batafsil o'rganib, bartaraf etishga kirishdi. Bu ishga eng malakali mutaxassislar, muhandis-texnologlar, sohaning boshqa vakillari jalb etildi. Qurilish-ta'mirlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, qayta jihozlash va texnik yangilash, kon texnikalarini almashtirish, ishchi-xodimlar uchun munosib ish, daromad manbalarini yaratish, ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Tez fursatda barcha muammolar hal etildi. Ishchi-xodimlarni maxsus kiyim-bosh bilan ta'minlash, tegishli uchastkalarga bepul issiq ovqat, sut, qattiq mahsulotlari berish yo'lga qo'yildi. Konchilar shaharchasi ijtimoiy hayotini yaxshilash borasida ham tizimli ishlar olib borildi. Bu o'zgarishlar jamoaga ishchanlik kayfiyati, hayotiy farovonlik va yuqori ish samaradorligini bag'ishladi.

MARJONBULOQ VA
MARJONBULOQLIKLAR

BIRLASHGAN DOIM O'ZAR

— Ayni paytda konimizda 890 nafar ishchi-xodim mehnat qilmoqda. Ularning 168 nafarini oliy, 258 nafarini o'rta maxsus, 449 nafarini o'rta ma'lumotli mutaxassislar, shundan, 125 nafarini yoshlar va 48 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi, — deydi kon boshlig'i Alisher Hazratqulov. — Jamoa ahilligi, mas'uliyatni his etib ishlayotgani va yosh, malakali mutaxassislardan tashkil topgani yutuqlarga omil bo'lmoqda.

O'tgan yillarda kon quvvatini oshirish borasida juda ko'p ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalar, raqamlashtirish joriy etildi. Muhim dasturlar, loyihalar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ishlab chiqarish sur'atini oshirib yubordi. 2002-yilda ushbu konda 718,8 ming kubometr tog' jinslari qazib olingan bo'lsa, 2016-yilda bu ko'rsatkich 3,3 million kubometrga, 2024-yilda esa 5,4 million kubometrga yetgani ulkan yuksalishdan dalolat. Jamoa o'sish ko'rsatkichlarini 2024 yilda 2014-yilga nisbatan 216 foizga yetkazishga erishdi.

Konchilik sohasini texnikalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois, texnika parki zamonaviy, qudratli texnikalar bilan to'ldirib borilmoqda. Ayni paytda kondagi qazish ishlariga 4 ta burg'ilash uskunasi, 7 ta ekskavator, 28 ta avtoag'dargich, 40 ga yaqin turli rusumdagi zamonaviy texnikalar jalb etilgan.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida yaxshi bir an'ana bor. Ellik ming kishilik jamoa har bir ishchi-xizmatchisining mehnati e'tiborda va o'z e'tirofini topib kelayapti. Marjonbuloqda ham bunday rag'batga erishganlar ko'p. Jumladan, Nuriddin Berdiyev va Abuhayot Hotamovlar "Shuhrat" medali, 49 nafar ishchi-xodim turli darajadagi "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni, 3 nafari "NKMK faxriysi" unvoni bilan taqdirlangani buning yaqqol tasdiqidir.

OSMONGA QARAGAN ODAMLAR

Bu yerga ilk kelishim! Shu bois, taassurotlar boshqacha bo'ldi. Hudud hayoti, dashtu dalalari, aholi turmush tarzi, shevasi biznikiga o'xshash. Odamlari oddiy va samimiy. Aholining asosiy kasbi kori — dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, qorako'lchilik. Ekin maydonlari asosan lalmikor. Osmonga qaragan elning asosiy daromadi yerdan. Qi-

shu bahor yaxshi, seryog'in kelsa, ular uchun katta bayram.

G'allaorol haqida ikki og'iz so'z. Tuman 1926-yilda tashkil topgan. Hududi keng, G'o'b-din tog' tizmasiga tutash. Asosiy maydoni keng dasht-adirlik, lalmikor yerlardan iborat. Qishloq nomlari ham ajoyib-g'aroyib. Qo'yotosh, G'alla-kor, Mulkush, Tozaurug', Qipchoqsoy, G'o'bdin, Mo'ltob, Ko'kbo'loq, Mirzabuloq, Buloqboshi, Marjonbuloq va hokazo. Menimcha, ular joyning geografiyasi, qaysi qavm yashashidan kelib chiqib nomlangan.

Marjonbuloq shaharchasida asosan kombinat ishchi-xodimlari va ularning oilasi yashaydi. Shaharcha uy-joylardan tashqari, qator ijtimoiy

Urushlar, tabiiy ofatlar qanchadan-qancha begunoh insonlar umriga zomin bo'layapti. Odamlar, go'daklar och va yupun. Shularni internetda ko'rib, bugungi tinch-osuda, farovon hayotimizga shukronalar aytamiz. Ilohim, tinchligimizga ko'z tegmasin! Ko'ngil xotirjamlik, sog'lik bo'lsa, hammasi topiladi. Ha aytmoqchi! Oldinlari hozirgidek imkoniyatlar bo'lmagan. Butun xalq o'rtaol kun kechirib, qora qozonini qaynatardi. Bugun esa hayot o'zgarmoqda, sharoitlar yaxshilanoqda. Shuning o'zi katta baxt, asriy orzu emasmi!? Kamtarona mehnatim 2008-yilda davlatimizning yuksak mukofoti — "Shuhrat" medaliga munosib ko'rildi. Mendek oddiy kasb egasi uchun juda katta rag'bat bo'ldi. Bu, shak-shubhasiz, sohada



mehnat qilayotgan butun marjonbuloqliklar mehnatiga bo'lgan e'tirofdir. Buning uchun davlatimizdan, kombinatimiz ma'muriyatidan cheksiz minnatdorman.

Bu — oddiy kasb egasining Yangi O'zbekistonda kechayotgan islohotlar, o'zgarishlar, inson qadri ulug'lanishidan shukronaligi. Bugun ulkan jamoaning mehnatidan qadr topayotgan har bir a'zosi ana shunday quvonchli kayfiyatda.

SO'NGSO'Z O'RNIDA...

Konchilik sanoati barqaror ishlashida ma'dan zaxirasi muhim ahamiyat kasb etadi va uning istiqbolini belgilaydi. Hozirgi kunda "Marjonbuloq" konining aniqlangan ma'dan zaxirasi 5,9 million tonna, deb baholangan. Bu, 2034-yilgacha konning bir maromda ishlashiga yetadi, deganidir. Geologiya-qidiruv ishlari esa jadal davom etmoqda. Kelajakda uning zaxirasini yanada oshirish reja qilingan.

Jamoa bugun o'z oldiga katta maqsadlarni qo'ygan. Jumladan, 2027-yilgacha tog' jinslarini qazib olish hajmini qariyb 7 million kubometrga yetkazish yoki 28 foizga oshirish yo'lida tinimsiz harakat qilmoqda. Itilganga tole yor, deydlar. Ular bu yo'lga komil ishonch bilan faqat oldinga, yuksak marralar sari intilmoqda.

Yana bir e'tiborli jihati, kombinat ma'muriyati o'z ishchi-xodimlari va ularning oila a'zolari baxtiyor, farovon yashashlari uchun kerakli sharoitlarni yaratib berish borasida doimiy g'amxo'rlik ko'rsatib kelmoqda. Buni, birgina konchilar mas-kani bo'lgan Marjonbuloq shaharchasi misolida ko'rish mumkin. Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan insonparvarlik siyosati, islohotlarning eng chekka hududlar, xonadonlargacha kirib borayotgani va kombinat tomonidan ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan ishlar natijasida bu maskan yildan-yilga go'zal va obod go'shaga aylanib bormoqda.

Eng ulug', eng aziz bayram arafasida sharaflili va mashaqqatli kasb egalari huzurida bo'lib, ularning yilning to'rt faslida, kecha-yu kunduz, eng murakkab sharoitlarda, ochiq osmon ostidagi konda olib borayotgan mehnatiga guvoh bo'lib, mashaqqatli va matonatli kasb egalaringiz fidokorona xizmatlari ortidan qo'lga kiritayotgan yutuqlari, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz qahramonlariga qoyil qoldik.

Abdumajid JO'RAYEV.



■ Islohotlar — amalda!

ENG MUHIM QADAMLAR
ILMDAN BOSHLANADI

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Tarmoqlarga raqamlashtirish va sun'iy intellekt kabi yuqori texnologiyalar hamda innovatsion loyihalar jadallik bilan kirib kelmoqda. Bunday vaziyatda faqat o'zining aniq strategiyasi va innovatsion dasturiga ega kompaniyagina muvaffaqiyat qozonib, ishlab chiqarish sur'ati va o'sish darajasini saqlab qoladi. Kombinatimizda bugungi kun talabdan kelib chiqib, ishlab chiqarish jarayoniga ilmiy ishlanmalar, innovatsion g'oya va ratsionalizatorlik takliflarini joriy etishga katta e'tibor berilmoqda. Shu ma'noda, kombinatimizda barcha sohalarida ilmiy izlanish olib boradigan va o'zining kreativ g'oyalari bilan faol yoshlarimiz doimo qo'llab-quvvatlab kelinmoqda.

Shu o'rinda, keyingi yillarda bu sohada yutuqlarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, katta qobiliyat va ilmiy salohiyatga ega mutaxassislarimiz tomonidan 46 dan ortiq yaratgan ixtirolarga respublika va xorijiy davlatlarning patentlari olindi. Ular ishlab chiqarishga joriy etilib, yuksak iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

Kombinat tomonidan "Ratsionalizatorlik faoliyati to'g'risida"gi nizom ishlab chiqilgan bo'lib, joylarda tashkil etilgan ratsionalizatorlar va ixtirochilar klublarida Nizom asosida ishlar olib borilmoqda. Korxona bo'linmalarida ixtirochilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimi, yoshlarning texnik ijodiyotini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilgan. Har yili an'anaviy tarzda 8 ta yo'nalis bo'yicha "Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi" tanlovi o'tkazib kelinadi. Unga qatnashuvchilar soni ortib borayotgani va kombinat mutaxassislari tomonidan yaratilayotgan takliflar korxonaga katta iqtisodiy foyda keltirayotgani quvonarli holdir. Jumladan, birgina 2018-2025-yillarda 1316 ta ratsionalizatorlik takliflaridan kombinat 570 milliard so'm iqtisodiy samaradorlikka erishdi, ularning mualliflari 6,2 milliard so'm mablag' bilan rag'batlantirildi. Joriy yilda "Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi" tanlovi komissiyasiga 271 nafar ishtirokchidan 276 ta ratsionalizatorlik taklifi kelib tushdi. Komissiya tomonidan takliflar o'rganilib, 9 ta yo'nalis bo'yicha g'oliblar aniqlandi.

Ha, kombinatimizdagi islohotlar nafari har bir bo'linmalarga kirib borayapti, ishlab chiqarish o'sayapti. Ko'plab zavodlar ochilayapti, shu bilan birga salohiyatli yoshlar ham yetishib kelayapti. Xodimlar turmush madaniyatiga qaratilayotgan e'tibor shundan dalolat bermoqda. Ko'plab yangi inshootlar, ishchilar shaharchalari zamonaviy qiyofaga ega. Har bir korxona, zavod, yangi qurilgan binolar atrofi ko'kalamzorlashtirilgan. So'lim bog'-rog'lar, ravon yo'laklar, sport maydonlari barpo etilayotir.

Bugungi kunda Navoiy kon-metallurgiya kombinati geologiya, konchilik, metallurgiya, energetika, transport, qurilish va boshqa sohalarini mujassam etgan ko'p tarmoqli ishlab chiqarish klasteri hisoblanadi. Mazkur yo'nalisning har biri bo'yicha keng qamrovli ishlar, loyihalar, dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu esa kombinatni rivojlantirish, kelgusi istiqbolini belgilashda alohida ahamiyat kasb etayotir.

Xususan, korxonaning qimmatbaho metallarni qazib olish bo'yicha bo'linmalari Navoiy, Samarqand va Jizzax viloyatlarida joylashgan Markaziy, Shimoliy, Janubiy va "Qizilqum" kon boshqarmalaridagi ochiq va yer osti konlaridan iborat. Amaldagi konlarda tog' jinslarini qazib olish hajmini oshirish va yangi konlarni o'zlashtirish natijasida korxonada qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yildan-yilga o'sib bormoqda.

Misol uchun, tog' jinslarini qazib chiqarish ko'rsatkichi 2016-yilda 107,4 million kubometr-ga bajarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024 yilda

284,6 million kubometr-ga yetdi. Shu bilan birga, ma'dan qazib olish rejasini 2016-yilda 50,3 million tonnaga bajarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilda 94,7 million tonnani tashkil etdi.

Birgina geologiya sohasini oladigan bo'lsak, so'nggi yillarda unga alohida e'tibor qaratilib, zamonaviy talablarda texnologik yangilash, ilm-fan yutuqlarini qo'llash va kadrlarni tayyorlash bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, yangi samarali ishlaydigan tizim yaratish bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. Bu borada kombinatda olib borilayotgan muhim chora-tadbirlar, amalga oshirilayotgan islohotlar va sohadagi rejalar haqida ko'plab gapirish mumkin.

Kombinatimizda barcha sohalarida kabi geologiya sohasi ham raqamlashtirilmoqda. Xususan, geologik ma'lumotlar raqamlashtirilgan holda qayta ishlanmoqda va bunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida qo'llanilayotgan geoaxborot texnologiyalardan, dasturiy ta'minotlardan keng foydalanilmoqda.

So'nggi yillarda kombinatimizda geologiya sohasini transformatsiya qilish doirasida uning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, ilmiy izlanishlar va kadrlar tayyorlash kuchaytirildi.

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJda amalga oshirilayotgan Raqamli transformatsiya strategiyasi hamda konlar va gidrometallurgiya zavodlaridagi operation samaradorligini oshirish dasturi doirasida yaqinda Shimoliy kon boshqarmasining "Sharqiy" konida Yagona kon-geologiya axborot tizimini joriy etish loyihasiga start berildi.

Loyihadan ko'zlangan maqsad — geologik, marksheyderlik va kon-texnik ma'lumotlar bilan samarali ishlash uchun zamonaviy raqamli vositalarni joriy etishdan iboratdir. Mazkur loyiha dunyoning raqamli muhandislik modellashirish sohasidagi yetakchilari tomonidan ishlab chiqilgan "GEOVIA Surpac" va "GEOVIA MineSched" dasturiy ta'minotlari asosida amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, loyiha bo'yicha maxsus avtomatlashtirilgan ish o'rinlarini yaratish hamda NKMK mutaxassislarini "GEOVIA" dasturiy ta'minoti bilan ishlashga o'rgatish ko'zda tutilgan. Yaqinda birinchi o'quv mashg'uloti o'tkazildi. Unda Shimoliy kon boshqarmasi mutaxassislari "GEOVIA Surpac" dasturining asosiy vazifalarini o'zlashtirib, geologik modellashirish va konchilik ishlarini rejalashtirish uchun raqamli imkoniyatlar bilan tanishdilar.

Mazkur axborot tizimini joriy etish kombinat raqamli transformatsiyasining muhim bosqichi bo'lib, konchilik jarayonlarini rejalashtirish aniq-ligi va boshqarish samaradorligini oshirishga hamda ishlab chiqarish xatarlarini kamaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Yana bir misol, kombinat konlarining mineral resurslari to'g'risidagi hisobotlar xalqaro standartlar asosida tayyorlanmoqda. Bugungi kunda 30 dan ortiq yirik va istiqbolli konlar xalqaro standartlar asosida qayta baholandi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirda kombinatning olti nafar mutaxassisi xalqaro institutlaridan biri bo'lgan — Avstraliyaning konchilik ishi va metallurgiya institutining a'zolari hisoblanishadi.

Aslida, madanshunoslarning yurtimiz taraqqiyotiga qo'shayotgan hisssasi juda yuqori. Boisi, geologlar davlatimizning energetik salohiyati, mineral-xom ashyo zaxiralarini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Zero, Ona zaminimiz qaridagi boyliklarni izlab topish va ularni ishlab chiqarishga yo'naltirishdek mas'uliyatli va sharaffi kasb sohiblarining mehnatlarini har qancha e'tirof etsa arziydi.

Dildora KARIMOVA.

■ Kitobxonlik

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan kitob mutolaasi muhimligi, yoshlar, aholi oʻrtasida kitobxonlikni keng targʻib qilish lozimligi haqida koʻp bora aytilmoqda. Davlat rahbari tomonidan yoshlar maʼnaviyatini yuksaltirish va ularning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish boʻyicha ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning aynan bittasi kitobxonlikka qaratilgan boʻlib, u yoshlar maʼnaviyatini yuksaltirish, ular oʻrtasida kitobxonlikni keng targʻib qilish boʻyicha tizimli ishlarni tashkil etishga yoʻnaltirilgan.

ZARKENTDA MAʼRIFAT BAYRAMI

Janubiy kon boshqarmasi boʻlinmalarida mavjud kutubxonalar, burchaklarni eng sara kitoblar, adabiyotlar bilan bosqichma-bosqich toʻldirib boshlash, mehnat jamoasi orasida kitobxonlikni keng targʻib qilishga alohida eʼtibor qaratilgan. Ishchi-xodimlarning boʻsh vaqtlari va ishdan keyin kitob mutolaa qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Buning natijasida hududda kitobxonlar soni ortib borayotir.

Kon boshqarmasida “Samarqand Kitob olami” masʼuliyati cheklangan jamiyati bilan hamkorlikda kitobxonlik tadbiri tashkil etilib, ishchi-xodimlar, mahalliy aholi vakillari uchun Zarkentda kitoblar koʻrgazmasi oʻtkazildi. Koʻrgazmada oʻzbek yozuvchi-shoirlari, jahon adiblarning besh mingdan ortiq asarlari savdosi uyushtirildi. Koʻrgazma aholi va jajji kitobxonlar bilan yanada gavjum boʻldi.

– Tashkilotchilarga rahmat! Ajoyib maʼnaviyat tadbiri boʻldi. Chunki, bunday tadbirlar xalqimiz uchun zarur. Dunyoni faqat kitob oʻqish, ilm bilan zabt etish mumkin. Bejizga kitobni – ilm manbai, deyishmaydi. Shuning uchun kitobxonlikni keng



targʻib etish, yoshlar ongiga chuqur singdirish, albatta, odamni, olamni jaholatdan qutqaradi, – deydi kexsa kitobxon Ibodulla Sayfiddinov. – Tadbirda eʼtibor berdim: bizning Zarkentda ham kitobga qiziqadigan odamlar koʻp ekan. Koʻrgazmada nafaqat ularning qiziqishi, balki oʻzi uchun, farzandlari uchun oʻzbek va jahon adabiyoti durdonalarini xarid qilishiga guvoh boʻldim. Bu – yaxshi anʼana! Bunday koʻrgazmalarni koʻpaytirish, keng ommalashtirish zarur, deb oʻylayman.

Ushbu tadbirning bir guruh ishtirokchilari bilan mulotoq qildik.

Sevinch Quvondiqova: yoshim 15 da. Kitob oʻqishga qiziqaman. Eng sara kitoblar shaydosiman, qayerga borsam kitob olaman. Moʻjazzgina kutubxonam ham bor. Bugun ham 5 dona har xil kitoblarni kart qildim. Koʻrib turibsis, ushbu koʻrgazma tashkil etilganidan barcha yoshu kexsa kitobsevarlar xursand.

Nargiza Hayitova: Janubiy kon boshqarmasi ofis-menajer boʻlimida ishlayman. 2 nafar farzandim bor. Ikkalasi ham kitobxon, adabiyotlarni talashib-tortishib oʻqishadi. Bugungi koʻrgazmadan ularning yoshiga mos 560 ming soʻmlik kitoblarni xarid qildim. Oʻylaymanki, bu – farzandlarim uchun yaxshi sovgʻa boʻladi. Kitobga oshno boʻlishda katta hikmat mujassam.

Bir soʻz bilan aytganda, Zarkentda kitoblar koʻrgazmasi har tomonlama yuqori saviyada boʻlib oʻtdi. Kon boshqarmasi havaskor ijodkorlari, maʼnaviyat targʻibotchilarining chiqishlari tadbirga yanada fayz bagʻishladi.

Dildora ATABAYEVA.

■ Xabar

Markaziy kon boshqarmasi maʼmuriyati olis Tomdi tumani aholisining bandlegini taʼminlash, ularning turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Joriy yilning oʻtgan davrida tumanning 117 nafar ishsiz fuqarolari kon boshqarmasi boʻlinmalariga ishga qabul qilingan.

TOMDI TUMANI FUQAROLARI ISHGA QABUL QILINMOQDA

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 25-iyundagi qarori ijrosini taʼminlash maqsadida, olis Tomdi tumani istiqomat qilayotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz fuqarolarning yana 43 nafari kon boshqarmamizga ishga qabul qilindi, – deydi kon boshqarmasi direktorining xodimlar va maʼmuriy masalalar boʻyicha oʻrinbosari Akmal Normirzayev. – Ayni vaqtda tumanning “Keregetov”, “Tomdibuloq”, “Shieli”, “Aqquduq”, “Sharq”, “Aqtov” va “Suketti” kabi ovul fuqarolar yigʻinlarida istiqomat qilayotgan 70 nafarga yaqin fuqarolarini kasb-hunarga oʻrgatish uchun ular boshqarmamizning Oʻquv markazida nasos qurilmasi mashinisti, taʼmirlovchi-chilangar va tegirmon mashinisti kabi kasblar boʻyicha oʻquv kurslarda oʻqitilmoqda.

Bunday xayrli ishlar tuman aholisi turmush tarzini yaxshilashga taʼminlashga qaratilganligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Aziza IRISOVA.

■ Hayot chorrahalarida

TASKIN

Rus shoirasi Svetlana Kopilova sheʼriy rivoyatining nasriy bayoni

Ikki kishilik palatada oʻrnidan tura olmaydigan ogʻir bemorlar davolanishar edi. Birining krovati deraza oldida, unga quyosh nuri tushib turar, ikkinchisini – eshikning toʻgʻrisida edi. Deraza yonida yotgan bemor oynakdan koʻzini uzmas, ikkinchi bemor faqat roʻparasidagi eshikka termilib yotishga mahkum, bu esa uni gʻashiga tegar edi. Bir xillikdan charchagan ikkinchi bemor birinchisidan deraza ortida nimalarni koʻrayotganini aytishini soʻradi. Birinchi bemor xayrixohlik ila soʻzlay boshladi:

– suvi tiniq irmoqcha sokin oqyapti, qirgʻoqda esa – mushuk sayr qilib yuribdi, moviy osmon uzra turli hayvonchalarning shakliga ega oppoq bulutlar suzmoqda, qayiq bogʻlagichning oldidagi taxta supachada ikki baliqchi dildan suhbatlashib, baliq ovlashmoqda. Ana, bir nuroniy buvi jajji nabirasi bilan soʻzlashib ketyapti...

Har kuni goh sirli oʻrmon, goh sevishganlar – deraza ortidagi joʻshqin hayot haqida soʻzlar edi birinchi bemor, palatadoshining iltimosiga koʻra. Birinchi bemorni zavqlantiradigan lavhalarni koʻrishdan benasib ekanligi ikkinchi bemorni hasad olovida yoqdi, hatto ovqat yegisi kelmay qolib, alami ich-etini yemira boshladi:

– Nega? Nima uchun bunday adolatsizlik?

U ham deraza oldida yotib, tabiat goʻzalligidan bahra olgisi, baliqchilarning qanday ov qilayotganini kuzatgisi, insonlar hayoti-yu, ob-havo oʻzgarishlarini tomosha qilgisi keladiku!

Bir kuni tunda palatadoshining ahvoli ogʻirlashdi, nafas olishi qiyinlashib, hatto qoʻlini choʻzib chaqiruv tugmasini bosishga holi boʻlmadi. Ikkinchi bemor oʻzining yonidagi chaqiruv tugmasini bosib, hamshirani chaqirishi mumkin edi, lekin koʻzini zich yumganicha, qimir etmay yotdi.

Ertalab hamshira marhumning toʻshagini almashtirishga kirganida, ikkinchi bemor uning krovatini deraza oldiga surib qoʻyishni iltimos qildi. Hamshira uning istagini bajardi. Derazaga boqqan bemorning boʻyin tomiri titrab ketdi. Koʻz oʻngida u koʻrishni istagan goʻzallik oʻrniga baland devor namoyon boʻldi. Bemor hamshiraga suvi buloqdek tiniq irmoqcha, sirli oʻrmon, supachali qirgʻoq va osmonda suzib yurgan jingalak qoʻzichoqlar haqida soʻzlagan hamxonasi toʻgʻrisida gapirdi. Hamshira esa vafot etgan bemor tugʻilgandan koʻzi ojiz boʻlganini aytdi.

– Unda negaʼ? – pichirladi bemor.

– U sizga taskin berishga harakat qilgan, xolos.

NMZ kadrlar boʻlimi mutaxassisi
Dilrabo RAHMATOVA talqinidagi tarjima.

■ Dolzarb mavzu



Soʻnggi vaqtlarda Navoiy viloyati hududida bank plastik kartalaridagi pullarni talon-toraj qilish bilan bogʻliq sodir etilayotgan jinoyatlar salmogʻi kun sayin oshib borayotganligi hech kimga sir emas. Viloyat hududida bank plastik kartalaridagi pullarni noqonuniy oʻzlashtirilishi, mablagʻlarning nomaʼlum tarzda yechib olinishi xususida murojaatlar koʻpaymoqda. Mazkur yoʻnalishda kelib tushayotgan murojaatlar tahlil qilinganda, respublika boʻyicha roʻyxatga olingan jinoyatlarning 45 foizidan ortiq qismi, Navoiy viloyati miqyosida joriy yilning 8 oyi davomida jami sodir etilgan jinoyatlarning 38,3 foizi, yaʼni 2838 ta jinoyatdan 1088 tasi virtual muhitda sodir etilgan kiberjinoyatlarni tashkil qiladi. Kiberjinoyatlar miqyosi va dolzarbligidan kelib chiqqan holda Prezidentimiz tomonidan joriy yilning 30-aprel kuni “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qaror imzolandi. Ushbu qarorga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, banklar, toʻlov tizimi operatorlari va toʻlov tashkilotlarining har biriga kiberjinoyatlarning oldini olish hamda aholining kibermadaniyatini yuksaltirishga qaratilgan barcha zarur choralarini koʻrish boʻyicha qatʼiy topshiriqlar belgilab berildi.

Jumladan, banklar, toʻlov tizimi operatorlari va toʻlov tashkilotlari uchun oʻz kundalik faoliyatini tashkil etishda mijozlarining manfaati va moliyaviy xavfsizligini taʼminlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, Navoiy viloyati hududida kiberjinoyatlarga qarshi kurashish, uning oldini olish va fosh etish, fuqarolarga kiberfiribgarlar tuzogʻiga tushib qolmasliklari uchun ularning kiber bilimlarini oshirish, aholining ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi immunitetini shakllantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmogʻda.

Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi Axborot texnologiyalari sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi masʼul xodimlari tomonidan har kuni fuqarolar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri targʻibot uchrashuvlari oʻtkazilib, ijtimoiy tarmoqlar qarshi onlayn tarzda targʻibot materiallari keng yoritilmoqda.

Viloyatning har bir mahallasida xizmat olib borayotgan profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan oʻz xizmat hududidagi har bir xonadon, korxona, tashkilot, muassasalarda kiberjinoyatlarning oldini olishga qaratilgan targʻibot tadbirlari olib borilmoqda.

Bu masalada fuqarolarning pozitsiyasi aniq va tizimli boʻlishi lozim. Sababi firibgarlar tomonidan hozirgi kunda eng ommalashgan kommunikatsiya tarmoqlaridan biri boʻlgan “telegram” messengeri orqali turli koʻrinishdagi kiberhujumlar sodir etilmogʻda.

Ulardan fayl koʻrinishi “apk” kengaytmali zararli dasturlarni misol qilish mumkin. Birgina “Toʻyga taklifnoma”, “Rasmdagi sizmi”, “Sud qarori” va shu kabi fuqarolarni qiziqitiruvchi turli

xil sarlavhalar bilan nomlangan virusli dasturlar orqali aholining aksariyat qismini aldash, shaxsiy maʼlumotlarini egallagan holda bank plastik kartalarida mavjud boʻlgan mablagʻlarni yashirin ravishda talon-toraj qilish holatlari tez-tez sodir boʻlmogʻda.

Afsuski, fuqarolarning bu sohadagi huquqiy savodxonligi yetishmasligi oqibatida, messengerlardagi yolgʻon “havola” va “soxta reklama”larga aldanib, shaxsiy pul mablagʻlarini oʻz ixtiyorlari bilan firibgarlarning qoʻliga tutqazish holatlari uchramogʻda.

Fuqarolarimiz firibgarlar tomonidan ularning turli koʻrinishdagi aldov yoʻlidagi oson pul topish va shohona hayot kechirishdagi va dalariga ishonib, pullarini oʻzlari tanimagan shaxslar ixtiyoriga topshirishmogʻda.

OAV orqali har kuni kiberjinoyatlardan ogoh etuvchi koʻplab materiallar yoritilayotgan boʻlsada, baʼzi hollarda fuqarolar loqaydliklari oqibatida ushbu jinoyatlarning jabrlanuvchisi boʻlib qolishi mumkin.

Endilikda shu kabi holatlarning oldini olish maqsadida viloyat Ichki ishlar boshqarmasi Axborot texnologiyalari sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi tomonidan maxsus @navoiycyberbot telegram boti yaratildi. Mazkur bot, telegram guruhlariga turli profil egalardan kelayotgan “apk” formatidagi virusli fayllarni aniqlab, oʻz vaqtida zararsizlantirish choralarini koʻrish bilan bir qatorda, ushbu guruhlariga kibermakondagi tahdidlardan himoya qilish va fuqarolarni kiberjinoyatlarning oqibatlaridan ogohlantirishga qaratilgan targʻibot materiallari bilan tanishtirib boradi. Bir soʻz bilan aytganda, hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib borayotgan kiberjinoyatlardan fuqarolarni onlayn tarzda ogohlantirish turadi.

Bundan tashqari, viloyat Ichki ishlar boshqarmasining ijtimoiy tarmoqlardagi navyber_102, cyber_102 navoiy rasmiy kanallari orqali hozirgi kunda kibermakondagi jinoyatlar va ulardan hi-moyalalanish usullari boʻyicha video va matnli targʻibot materiallari yoritib borilmoqda.

Joriy yilning sentabr oyida “Xavfsiz kibermakon” keng qamrovli tezkor-profilaktik targʻibot oyligini oʻtkazish orqali aholining kibermadaniyatini yuksaltirishga qaratilgan targʻibot-tashviqot tadbirlarini tashkil etish maqsad qilindi.

Axborot texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda, har bir inson axborot xavfsizligiga qatʼiy rioya qilgan holda shaxsiy va bank plastik kartalaridagi maʼlumotlarni uchinchi shaxslardan sir tutishi lozimligini bugungi kunda kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlar taqozo etayotganligi hech kimga sir emas. Shunday ekan, fuqarolarimiz har qanday kiberhujumlarga ongli ravishda munosabat bildirib, ulardan himoyalalanishlari lozim.

Shokir HAZRATQULOV,
Navoiy viloyati IIB
ATSJQKB masʼul xodimi.

■ Jinoyat va jazo

QILMISH-QIDIRMISH

Inson tabiati shunaqa: bizda goʻyoki hammasi toʻkis va muhayyo boʻlishi kerakdek, hayot bizni baxtli qilish uchun qarzdordek! Aslida, berilgan neʼmatlardan foydalanib, halol mehnat, qaysi kasbda boʻlmasin, astoydil ishlash bilan baxt yaratiladi. Biroq, oramizda shunday insonlar borki, hayot insonga berilgan bebaho neʼmat ekanligini, uning qadriga etish kerakligini anglab etmaydi, noshukurligi, oxirini oʻylamasdan qingʻir ishga qoʻl urib boridan ham ayriladi, oʻzining, otasining ism-sharifi ustidan qora chiziqtortadi.

2025-yilning 15-may kuni Navoiy viloyati IIB NKMK IIB xodimlari tomonidan oʻtkazilgan tezkor tadbir davomida A.A ismli fuqaro oʻzining yuqori lavozimda ishlovchi tanishlari orqali fuqaro M.S.ni “Navoiy KMK” AJ “Qizilqum” kon boshqarmasiga qarashli “Pistali” koniga ishga kiritishni vaʼda qilib, undan 2 500 AQSh dollarini olayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qoʻlga olindi. Fuqaro A.A.ga nisbatan Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi 2-qismi va 211-moddasiga asosan jinoyat ishi

qoʻzgʻatilib, tergov harakatlari olib borildi. Qilmish-qidirmish, deganlaridek, mazkur holat yuzasidan sud jinoyat sodir etgan fuqaroga nisbatan adolati hukm chiqardi. Shahar bedarvoza emas, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga qilmishiga yarasha qatʼiy javobgarlik belgilanganini aslo unutmaslik kerak.

Umidjon HAZRATOV,
Navoiy viloyati IIB
NKMK IIB xodimi, kapitani.

KONCHILAR HAYOTI

MUASSIS:
“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta roʻyxatga olingan.

Muharrir:
Nizomiddin SADRIDDINOV



Tahririyat manzili:
210100.
Navoiy shahri, Navoiy koʻchasi, 27-uy,
“NKMK” AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamgʻarmasi” DM boʻlinmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. “Noshir Lux” MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati boʻyicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. Bosmaxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Navbatchi: Nasiba SHAMURATOV
Texnik muharrir: Zafarjon OLIMOV

Qogʻoz bichimi A2. 11700 nusxada chop etildi. Buyurtma № 427. 2025-yil 12-sentabr 17:00 da chop etishga topshirildi.